INGLIZ TILI O‘QUVCHILARIDA LINGVOKULTUROLOGIK KOMPETENSIYANI ONOMASTIK BIRLIKLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH: METODIK MODEL VA PEDAGOGIK TAMOYILLAR

Komilova Muxtaramxon Xotamjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti,
3- bosqich doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz tili yo‘nalishi talabalarining lingvokulturologik kompetensiyasini onomastik birliklar xususan, antroponimlar asosida rivojlantirishning metodik modeli va pedagogik tamoyillari yoritiladi. Tadqiqotda M.Byramning madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya modeli, C.Kramschning “uchinchi makon” konsepsiyasi, M.Canale va M.Swainning kommunikativ kompetensiya nazariyasi hamda L.Vigotskiyning yaqin rivojlanish zonasi nazariyasi sintezlashtirilgan holda ishlab chiqilgan to‘rt komponentli model taqdim etiladi. Onomastik birliklar, jumladan ingliz ismlari, til va madaniyat o‘rtasidagi ko‘prikning bevosita ifodasini tashkil etadi. “Country Study” raqamli platformasi asosidagi interaktiv modul orqali amalga oshirilgan mashg‘ulot tizimi talabalarda madaniyatlararo bilish, tahlil qilish va qiyosiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Kalit so‘zlar: *lingvokulturologik kompetensiya, onomastik birliklar, antroponimlar, metodik model, madaniyatlararo kommunikatsiya, ingliz tili ta’limi.*

KIRISH

Til va madaniyat munosabati zamonaviy lingvodidaktikaning markaziy muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. Bugungi globallashuv sharoitida ingliz tilini o‘rgatish jarayoni faqat grammatik qoidalar va leksik birliklarni o‘zlashtirishdan iborat bo‘lib qolmay, o‘rganilayotgan til orqali ifodalangan madaniy qatlam, tarixiy xotira va milliy o‘zlikni tushunishni ham o‘z ichiga oladi. Ayni shu nuqtada lingvokulturologik kompetensiya tushunchasi alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Lingvokulturologik kompetensiya til o‘rganuvchilarda til birliklari orqali kodlashtirilgan madaniy ma’nolarni idrok etish, turli madaniy kontekstlarni talqin qilish hamda madaniyatlararo muloqotda faol ishtirok etish qobiliyatini shakllantiradi. Ushbu kompetensiyani rivojlantirishda onomastik birliklar ismlar yo‘nalishi (antroponimlar), joy nomlari (toponimlar), xalq va elat nomlari (etnonimlar), suv havzalari (gidronimlar) ni o‘ziga xos didaktik imkoniyatlari mavjud. Zero har bir nom o‘zida tarix, din, mifologiya, ijtimoiy munosabatlar va milliy qadryatlarni o‘zida saqlaydi [7].

Mazkur maqolada Farg‘ona davlat universiteti ingliz tili yo‘nalishi talabalari uchun ishlab chiqilgan metodik model, uning nazariy-metodologik asoslari va pedagogik tamoyillari bayon etiladi. Antroponimlarni o‘rganishga mo‘ljallangan mashg‘ulotlar tizimi ushbu yondashuvning amaliy namunasi sifatida taqdim etiladi.

NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLAR

Metodik modelni qurish jarayonida bir-birini to‘ldiruvchi to‘rtta fundamental nazariy yondashuv sintezlashtirildi. Ularning tanlanishi tadqiqot predmetining

mazmuniy xususiyatlari hamda onomastik birliklarning o‘ziga xos lingvokulturologik tabiati bilan belgilanadi.

M.Byramning “Madaniyatlararo kommunikativ” kompetensiya modeli lingvokulturologik kompetensiyaning tarkibiy qismlarini aniqlash uchun asosiy asos bo‘lib xizmat qildi. Olim tomonidan ishlab chiqilgan beshta “savoir” mazkur tadqiqotda to‘rt komponentga sintez qilindi. Bu yondashuv talabalarning madaniyatlararo muloqotga nafaqat lingvistik, balki kognitiv va affektiv jihatdan ham tayyor bo‘lishini ta’minlaydi [1].

C.Kramschning “Uchinchi makon” konsepsiyasi modelning madaniyatlararo tahlil komponentiga asos soldi. Kramsch ta’kidlaganidek, til o‘rganuvchi o‘z madaniyati va o‘rganilayotgan madaniyat o‘rtasida yangi uchinchi madaniy makon yaratadi. Mazkur tadqiqotda ingliz va o‘zbek onomastik birliklarini qiyosiy o‘rganish orqali ushbu makon faol shakllantirilib boriladi [3].

M.Canale va M.Swainning “Kommunikativ kompetensiya” nazariyasi to‘rt komponentli tuzilma grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va didaktik mantig‘ini ta’minladi. Sotsiolingvistik komponent, xususan, onomastik birliklarni ijtimoiy-madaniy kontekstda o‘rganish zarurligini asoslaydi: ism nafaqat belgini, balki ma’no va ijtimoiy munosabatni ham ifodalaydi [2].

L.Vigotskiyning “Yaqin rivojlanish zonasi nazariyasi o‘qitishni bosqichma-bosqich tashkil etishning pedagogik asosi sifatida qabul qilindi. Mashg‘lotlar motivatsion, kognitiv, faoliyat va refleksiv bosqichlarda izchil qurilib, har bir keyingi bosqich oldingi bilimlar ustiga yangi qatlam qo‘shadi. Bu yondashuv talabalarning mustaqil faoliyat doirasini kengaytirishga xizmat qiladi [4].

TO‘RT KOMPONENTLI METODIK MODEL

Yuqoridagi nazariy yondashuvlar integratsiyasi asosida ishlab chiqilgan metodik model to‘rtta o‘zaro bog‘liq komponentdan tashkil topadi. Har bir komponent onomastik birliklarning muayyan lingvokulturologik qirrasini o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ularga mos pedagogik usullar va vositalar belgilangan.

Birinchi komponent lingvistik-madaniy bilimlar komponenti onomastik birliklarning etimologiyasi, tarixiy kelib chiqishi va lingvomadaniy mazmunini o‘zlashtirish uchun mo‘ljallangan. Ingliz ismlarini o‘rganish talabalarga xristian, nemis va lotin etimologiyali ismlarning uch asosiy qatlami tanishtiriladi. Vizual materiallar, PowerPoint diagrammalari va matn tahlili asosiy vositalar sifatida qo‘llaniladi [12].

Ikkinchi komponent kommunikativ-madaniy ko‘nikmalar komponenti onomastik birliklarni faol muloqot vaziyatlarida qo‘llash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Role-play mashqlari, ingliz ismi bilan o‘zini tanishtirish, ingliz va o‘zbek ismlarini taqqoslash jadvallari asosiy metodlar hisoblanadi. Bu komponent Canale-Swain nazariyasidagi sotsiolingvistik tizimga bevosita mos keladi.

Uchinchi komponent madaniyatlararo qiyosiy tahlil komponenti Kramschning “uchinchi makon” g‘oyasini amalda ro‘yobga chiqaradi. Talabalar ingliz ismlarining madaniy-tarixiy ma’nosini o‘zbek ismlari bilan qiyoslash orqali ikkala madaniyatning umumiy va farqli jihatlarini kashf etadilar. “Country Study” raqamli platformadagi interaktiv modullar ushbu jarayonni qiziqarli va samarali qiladi [11].

To‘rtinchi komponent refleksiv-baholash komponenti metakognitiv ko‘nikmalarni shakllantirish va o‘z-o‘zini nazorat qilishga yo‘naltirilgan. O‘z-o‘zini baholash, portfolio yuritish va guruh muhokamasi orqali talabalar o‘z o‘sishlarini kuzata oladilar.

XULOSA

Lingvokulturologik kompetensiyani onomastik birliklar asosida rivojlantirishning metodik modeli til ta’limida an’anaviy lingvistik va zamonaviy madaniyatlararo yondashuvlarni birlashtirishning samarali yo‘li sifatida taqdim etildi. Model o‘zining bir necha ilmiy yangiliklari bilan ajralib turadi.

Birinchidan, onomastik birliklar shaxs ismlari, joy nomlari, etnonimlar lingvokulturologik material sifatida tizimli didaktik asosda birinchi marta to‘rt komponentli metodik modelga kiritildi. Ikkinchidan, Byram, Kramsch, Canale-Swain va Vigotskiy nazariyalari bitta integrativ tizimda sintezlashtirildi. Uchinchidan, raqamli texnologiyalar an’anaviy sinfxona metodikasi bilan uyg‘unlashtirildi. To‘rtinchidan, ingliz va o‘zbek onomastik birliklarining qiyosiy tahlili talabalarda ikki madaniyat o‘rtasidagi “uchinchi makon”ni faol shakllantiradi.

Ushbu metodik yondashuv O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida ingliz tili o‘qituvchilari amaliyotiga tadbiq etishga tavsiya etiladi. Kelajakda modelni boshqa onomastik birliklar bo‘yicha yanada kengaytirib, to‘liq onomastik dastur yaratish dolzarb vazifa bo‘lib turibdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Byram M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. Clevedon: Multilingual Matters, 1997. 124 p.
2. Canale M., Swain M. Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing // Applied Linguistics. 1980. Vol. 1. P. 1-47.
3. Kramsch C. Language and Culture. Oxford: Oxford University Press, 1998. 134 p.
4. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge: Harvard University Press, 1978. 159 p.
5. Superanskaya A.V. Obshchaya teoriya imeni sobstvennogo. M.: Nauka, 1973. 366 s.
6. M.Komilova “Analysis of Literary and Historical Approaches to Onomastics,” International Journal of Pedagogics, vol. 5, no. 5, pp. 360-361, May 2025, doi: 10.37547/ijp/Volume05Issue05-94.
7. M.Komilova “G‘arb ilmiy tadqiqotlarida onomastika”, Farg‘ona davlat universiteti Ilmiy xabarlar, no. 3, pp. 164-167, 2025.
8. M.Komilova “Yevropa tillaridagi gidronim va antroponimlarning lingvistik hamda madaniy o‘zgarishlari,” Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy-amaliy jurnali, no. 6, pp. 385-388, 2025.
9. M.Komilova “Adabiy onomastika metodologiyasi: D.Robbins asari asosida yondashuvlar va tahliliy yo‘nalishlar,” Buxoro davlat universiteti xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari, Book II, pp. 443–445, Sept. 2025.
10. M.Komilova, S.Usmanova “Country Study”, darslik. Farg‘ona davlat universiteti, 180 b, 17 bosma taboq, Nov. 2025.
11. M.Komilova “Country Study” ilova, JotForm ilova, 2025.
12. M.Komilova “Ingliz tili yo‘nalishi talabalarida lingvokulturologik kompetensiyani onomastik birliklar asosida rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari,” Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, pp. 114-118, Dec. 2025.